Nutq madaniyatini rivojlantirishga yo’naltirilgan mashqlar va topshiriqlar tizimi	566
Muxtarova Lobar Abdimannabovna, Chorshanbiyeva Mahliyo Sherali qizi	
Interaktiv metodlar orqali raqamli savodxonlikni rivojlantirish	571
Jahonova Xolida G’anisher qizi	
Badiiy pedagogika va virtual muzey integratsiyasi asosida talabalarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimini rivojlantirish	576
D. N. Adilova, M. A. Irgashova	
Badiiy matnda takror qurilmalarning qo’llanishi: “Otamdan qolgan dalalar” romani misolida	579
Gulzoda Uzoqova Ramazonovna	
Raqamli turizm texnologiyalari asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarida madaniy-ijtimoiy ko’nikmalarni rivojlantirish modeli va metodik ta’minoti	584
Ismatova Dilorom Hotam qizi	
Ijtimoiy tarmoqlarning o’smirlar o’z-o’zini baholashiga psixologik tasiri	589
Karatayeva Zamira Zakrulla qizi, Anvarova Muslima Boburjon qizi	
Ichki va tashqi motivatsiyaning talabalar faoliyatidagi roli	594
M. K. Muradova	
Talabalarda ehtimoliy tafakkurni rivojlantirishda cheksiz o’lchamli stoxastik operatorlar dinamikasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari	596
Madina Rasulova	
Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kreativ fikrlashini shakllantirish metodikasi	600
Mallayeva Gulshada Maxmudjonovna, Kurbanov Fazliddin Batirovich	
O’quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari	604
Mamadaliyeva Barnoxon Ibragimovna	
Tibbiy-pedagoglarda akmeologik yondashuv asosida pedagogik madaniyatni shakllantirishning tarkibiy qismlari, mezonlari va ko’rsatkichlari	606
Xayitova Shahnoza Daniyarovna	

NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQLAR VA TOPSHIRIQLAR TIZIMI

Muxtarova Lobar Abdimannabovna

Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Chorshanbiyeva Mahliyo Sherali qizi

Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Nutq madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar va topshiriqlar tizimining nazariy hamda amaliy asoslari tahlil qilingan. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirishga xizmat qiluvchi interfaol mashqlar, kommunikativ topshiriqlar hamda ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan metodik yondashuvlar o'rganilgan. Shuningdek, nutq madaniyatini rivojlantirishda tizimli mashqlar majmuasini ishlab chiqish, ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish va o'qitish samaradorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari nutq kompetensiyasini rivojlantirish hamda ta'lim sifatini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, kommunikativ kompetensiya, mashqlar tizimi, topshiriqlar, interfaol metodlar, og'zaki nutq, yozma nutq.

Abstract: The theoretical and practical foundations of a system of exercises and tasks aimed at developing speech culture are comprehensively analyzed. Interactive exercises, communicative tasks, and methodological approaches contributing to the development of students' oral and written speech are examined. Particular attention is given to designing a structured system of exercises, integrating them into the educational process, and improving teaching effectiveness. The research findings have significant scientific and practical value in enhancing communicative competence and improving the quality of education.

Key words: speech culture, communicative competence, system of exercises, tasks, interactive methods, oral speech, written speech.

Аннотация: Теоретические и практические основы системы упражнений и заданий, направленных на развитие культуры речи, подвергнуты комплексному анализу. Исследованы интерактивные упражнения, коммуникативные задания и методические подходы, способствующие формированию устной и письменной речи учащихся. Особое внимание уделено разработке системы упражнений, ориентированной на развитие речевой культуры, их интеграции в образовательный процесс и повышению эффективности обучения. Полученные результаты имеют важное научно-практическое значение для совершенствования речевой компетентности и повышения качества образования.

Ключевые слова: культура речи, коммуникативная компетенция, система упражнений, задания, интерактивные методы, устная речь, письменная речь.

KIRISH

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish jarayoni faqat nazariy bilimlarni o'zlash-tirish bilan cheklanmay, balki ularni amaliy mashqlar orqali mustahkamlashni ham taqozo etadi. Mashqlar tizimi o'quvchilarda til hodisalarini to'g'ri qo'llash, so'z boyligini kengaytirish, grammatik to'g'rilik va ifodalilikni oshirishga qaratilgan bo'lishi zarur. Shu jihatdan, ona tili o'qitish metodikasida mashqlarni tizimli tashkil etish hamda ularning didaktik ketma-ketligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nutq madaniyatini rivojlantirish masalalari pedagogika va ona tili o'qitish metodikasi sohasida ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Boshlang'ich ta'limda nutq faoliyatini shakllantirish, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish hamda til vositalaridan to'g'ri foydalanish masalalari metodik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. K. Mavlonova ilmiy tadqiqotlarida ona tili fanini adabiyot bilan integratsiyalash orqali badiiy matnlar asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyat-



lari yoritilgan¹. Tadqiqotlarda matn bilan ishlash, mazmuni tahlil qilish va mustaqil fikr bildirishga asoslangan topshiriqlarning nutq rivojiga ijobiy ta'siri ko'rsatib berilgan.

Nutq madaniyatini shakllantirishda kommunikativ yondashuv ham muhim o'rin tutadi. N. Jahonova o'quvchilarda nutq madaniyatini rivojlantirish metodlarini tahlil qilib, interfaol metodlar, savol-javob, suhbat va ijodiy topshiriqlarning o'quvchilarning muloqot madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini asoslagan². Muallifning ta'kidlashicha, o'quvchini faol nutqiy vaziyatlarga jalb etish uning mustaqil fikrlashini, nutqiy faolligini va fikrni mantiqan ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, J. Yo'ldoshev va G'. Yo'ldoshevlarning pedagogik texnologiyalar bo'yicha ilmiy qarashlarida o'quv faoliyatini faollashtirish, o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirish masalalari yoritilgan³. Ushbu yondashuvlar asosida mashq va topshiriqlarni tizimli tashkil qilish o'quvchilarning nutq boyligini oshirish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholanadi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda nutq madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar va topshiriqlar tizimining pedagogik samaradorligini aniqlash asosiy metodologik yo'nalish sifatida belgilandi. Tadqiqot kompetensiyaviy, kommunikativ hamda faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida olib borildi. Jarayonda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, nutqiy faolligini oshirish hamda kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik vositalarning ilmiy asoslari tahlil qilindi.

Tadqiqotning nazariy bosqichida mavzuga oid pedagogik, psixologik va lingvodidaktik manbalar o'rganildi, mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilindi. Nutq madaniyati, kommunikativ kompetensiya, interfaol ta'lim texnologiyalari va mashqlar tizimiga oid konseptual yondashuvlar umumlashtirildi hamda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari shakllantirildi.

Amaliy bosqichda pedagogik kuzatish, suhbat, diagnostik topshiriqlar, tajriba-sinov ishlari hamda monitoring metodlaridan foydalanildi. O'quvchilarning nutqiy rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida maxsus mashqlar va topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi hamda ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligi eksperimental ravishda sinovdan o'tkazildi.

Tadqiqot davomida o'quvchilarning so'z boyligi, nutqning mantiqiyliqi, izchilligi, ravonligi va uslubiy savodxonligi kabi ko'rsatkichlar muntazam tahlil qilindi. Olingan natijalar sifat va miqdoriy tahlil metodlari asosida qayta ishlanib, tajriba va nazorat guruhlari natijalari o'zaro taqqoslandi. Shuningdek, tadqiqotda interfaol metodlar, ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va kommunikativ mashqlarning nutq madaniyatini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari aniqlandi. Statistik tahlil natijalari ishlab chiqilgan mashqlar tizimining o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqladi. Natijada nutq madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar va topshiriqlar tizimining metodik modeli ishlab chiqildi hamda uni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Nutq madaniyati boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ, mantiqiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda markaziy o'rin tutadi. Shu maqsadda mashqlar va topshiriqlar tizimini shakllantirishda bir nechta asosiy prinsiplar hisobga olinishi lozim: tizimlilik, mantiqiy izchillik, individual va guruh faolligi, shuningdek, interaktiv yondashuv.

1. **Tizimli mashqlar:** Bu mashqlar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratiladi. Masalan, so'z boyligini kengaytiruvchi lug'at mashqlari, sinonim va antonimlarni topish, matn tahlili hamda qisqa hikoya tuzish mashqlari nutqni boyitadi, fikrni mantiqan izchil ifoda etishga ko'maklashadi.
2. **Mantiqiy izchillikni shakllantiruvchi topshiriqlar:** O'quvchilarni fikrlarni tartibga solish, bog'lash va tahlil qilishga yo'naltiruvchi mashqlar. Masalan, "Zanjirli so'z" yoki "Klaster" metodlari orqali o'quvchi matn mazmunini tushunadi, asosiy va qo'shimcha fikrlarni ajratadi hamda o'z bayonini izchil shakllantiradi.
3. **Kommunikativ va interfaol mashqlar:** "Munozara darsi", "Rolga kirish", "Savol-topshiriq", "Aqliy hujum" kabi mashqlar o'quvchilarni faol muloqotga jalb qiladi, fikr almashishga, tinglash va o'z fikrini tushunarli yetkazishga undaydi. Shu bilan birga, bu mashqlar o'quvchilarda nutq odobi va muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.
4. **Ijodiy topshiriqlar:** "Ijodiy yozuv mashg'ulotlari", hikoya, she'r yoki dialog yaratish kabi topshiriqlar orqali o'quvchilar nafaqat nutqini, balki tafakkuri va ijodiy qobiliyatini ham rivojlantiradi. Bu mashqlar o'quvchiga so'z boyligini kengaytirish, ifodali va estetik nutqni shakllantirish imkonini beradi.

- 5. Lug'atni boyituvchi mashqlar:** Nutq madaniyatining asosi so'z boyligidir. O'quvchi qancha ko'p so'z bilsa, uning nutqi shuncha boy, aniq va ifodali bo'ladi. Mashqlar va topshiriqlar tizimini ushbu prinsiplar asosida tashkil etish natijasida o'quvchilarda nutq madaniyati sezilarli darajada rivojlantiriladi, ularning mantiqiy tafakkuri mustahkamlanadi va muloqotga kirishish qobiliyati oshadi. Shu bois tizimli, mantiqiy va ijodiy yondashuvlar bilan boyitilgan mashqlar nutq madaniyatini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida qaraladi.

Nutq madaniyati boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ, mantiqiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda markaziy o'rin tutadi. Shu maqsadda mashqlar va topshiriqlar tizimini shakllantirishda bir qator asosiy yo'nalishlar mavjud: tizimli mashqlar, mantiqiy izchillikni shakllantiruvchi topshiriqlar, kommunikativ va interfaol mashqlar, ijodiy topshiriqlar hamda lug'atni boyituvchi mashqlar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tizimli mashqlar o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratilgan. Masalan, darsda yangi mavzuni o'rganish jarayonida o'qituvchi matn tahlili orqali so'z va iboralarni ajratadi, so'ng ularni jumalarda qo'llashni mashq qildiradi. Shu bilan birga, savol-javob mashqlari orqali o'quvchilar fikrlarini mantiqan izchil ifoda etishni o'rganadilar. Masalan, "Bugun o'rgangan yangi so'zlaringizni ishlatib, qisqa hikoya yozing" topshirig'i o'quvchilarning nutq madaniyatini mustahkamlaydi.

Mantiqiy izchillikni shakllantiruvchi topshiriqlar o'quvchilarni fikrlarni tartibga solish va bog'lashga yo'naltiradi. Masalan, "Zanjirli so'z" mashqida bir so'zdan boshlanib, o'quvchilar ketma-ket bog'langan so'zlar yordamida jumalar tuzadilar. "Klaster" mashqi esa o'quvchilarga berilgan mavzu bo'yicha asosiy va qo'shimcha fikrlarni guruhlash imkonini beradi. Bu mashqlar o'quvchilarda fikrlarni mantiqan izchil ifoda etish va ularni matn tarkibida o'rinni qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Kommunikativ va interfaol mashqlar o'quvchilarning faol muloqotini rag'batlantiradi. Misol uchun, "Munozara darsi"da o'quvchilar muayyan mavzu bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar, boshqalarning fikrlarini tinglaydilar va konstruktiv tarzda javob qaytaradilar. "Rolga kirish" mashqi orqali o'quvchilar turli rollarda nutqni amaliy tarzda qo'llashni o'rganadilar. Shu bilan birga, "Savol-topshiriq" va "Aqliy hujum" metodlari o'quvchilarning tez fikrlashi, so'z boyligini kengaytirishi va nutq madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning individual tafakkuri va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, o'quvchilarga "O'zingizning qisqa hikoyangizni yozing" yoki "Berilgan mavzu bo'yicha she'r yarating" kabi topshiriqlar beriladi. Shu orqali ular so'z boyligini kengaytiradilar, fikrlarini estetik va ijodiy tarzda ifoda etadilar hamda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Lug'atni boyituvchi mashqlar esa nutq madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Masalan, o'quvchilarga berilgan yangi so'zlar bilan sinonim yoki antonim topish mashqlari, lug'at kartochkalari va so'z zanjiri mashqlari so'zlarni kontekstda qo'llash va eslab qolish imkonini beradi. "Yangi so'z bilan jumla tuzing" yoki "Berilgan mavzu bo'yicha qisqa hikoya yozing" topshiriqlari orqali o'quvchilar so'z boyligini kengaytiradilar va mantiqan izchil nutqni shakllantiradilar.

Shaxsiy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, yuqorida sanab o'tilgan mashqlar tizimi muntazam qo'llanilganda o'quvchilarda nutq madaniyati sezilarli darajada rivojlanadi, muloqot madaniyati mustahkamlanadi hamda ijodiy tafakkur ko'nikmalari ortadi. Shu bois mashqlarni tizimli, interfaol va ijodiy yondashuv bilan birlashtirish pedagogik jarayonning samarali vositasi hisoblanadi.

Lug'atni boyituvchi mashqlar boshlang'ich sinf o'quvchilari nutq madaniyatini rivojlantirish jarayonida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bunday mashqlar nafaqat so'z boyligini kengaytiradi, balki o'quvchilarning fikrini mantiqan izchil va aniq ifoda etish qobiliyatini ham shakllantiradi.

- 1. Sinonim va antonim topish mashqlari:** O'quvchilarga berilgan so'zlar uchun sinonim yoki antonimlarni topish orqali ularning so'z boyligi kengaytiriladi. Shu bilan birga, so'zlarning ma'nosini farqlash va ularni kontekstda to'g'ri qo'llash ko'nikmasi rivojlantiriladi.
- 2. Lug'at kartochkalari va so'z banklari:** Har bir darsda yangi so'zlar kiritilib, ularni izohlash, gapda ishlatish va rasm bilan bog'lash mashqlari o'quvchilarda so'zlarni mustahkamlashga yordam beradi. Bu metod o'quvchilarning vizual va eshitish orqali o'rganish qobiliyatini rivojlantiradi.
- 3. Ma'noni topish va gap qurish mashqlari:** Berilgan yangi so'zlar bilan jumla yoki qisqa hikoya yaratish mashqlari o'quvchilarda so'zlarni kontekstda qo'llash va nutqni mantiqan izchil tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantiradi.
- 4. "So'z zanjiri" va klaster mashqlari:** Bu mashqlar so'zlarni mavzuga qarab guruhlash, ular orasidagi bog'liqlikni aniqlash va matn tarkibida o'rinni qo'llashni o'rgatadi. Shu orqali o'quvchilar lug'atni kengaytirish bilan birga, matn tuzish va fikrlarni tizimli ifoda etish malakasini ham shakllantiradilar.



Lug'atni boyituvchi mashqlar muntazam qo'llanilganda o'quvchilarda so'z tanlash va muloqot madaniyati sezilarli darajada rivojlanadi. Shu bois ona tili darslarida lug'atni boyituvchi mashqlarni tizimli tarzda integratsiya qilish nutq madaniyatini shakllantirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Nutq madaniyatining asosi so'z boyligidir. O'quvchi qancha ko'p so'z bilsa, uning nutqi shuncha boy, aniq va ifodali bo'ladi. Shuning uchun lug'atni boyitishga qaratilgan mashqlar o'quv jarayonida muntazam amalga oshiriladi. Bunday mashqlar o'quvchilarning yangi so'zlarni o'zlashtirish, ularni nutqda to'g'ri qo'llash hamda sinonim, antonim va ko'p ma'noli so'zlarni farqlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Masalan:

1. **“So'zni top” mashqi** – o'qituvchi ma'lum bir so'zning tavsifini beradi, o'quvchilar esa so'zni topadilar (masalan: “Bu narsa yozishda ishlatiladi, unda siyoh bo'ladi” → ruchka).
2. **“Sinonimlar zanjiri” mashqi** – bir so'zga ma'nodosh so'zlar topish orqali lug'at boyligi oshiriladi (masalan: go'zal – chiroyli – latofatli – dilbar).
3. **“So'zdan gap tuz” topshirig'i** – yangi so'zlarni kontekstdan kelib chiqib qo'llash malakasini mustahkamlaydi.

Nutq madaniyatining muhim belgilaridan biri grammatik to'g'rilikdir. Grammatik me'yorlarga amal qilish so'zlarning shaklini, gap qurilishini hamda so'z birkimlari orasidagi munosabatni to'g'ri ifodalashni talab etadi. Shu bois ona tili darslarida grammatik to'g'rilikni shakllantiruvchi topshiriqlar asosiy o'rin tutadi.

Quyidagi mashqlar ushbu jarayonni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi:

1. **“Xatoni top va tuzat” mashqi** – o'quvchilarga grammatik jihatdan noto'g'ri tuzilgan gaplar beriladi, ular xatoni topib, tuzatadilar.
2. **“Gapni to'ldir” topshirig'i** – o'quvchi mantiqan mos so'zni tanlab, gapni grammatik jihatdan to'ldiradi.
3. **“So'z turkumlarini ajrat” mashqi** – so'zlarning morfologik xususiyatlarini amalda farqlashni o'rgatadi.

Yozma va og'zaki nutqni ifodali qilishga qaratilgan ijodiy mashqlar

Ifodalilik nutq madaniyatining eng yuqori bosqichlaridan biridir. O'quvchilarni so'zning hissiy va estetik jihatlarini his qilishga o'rgatish orqali ularning badiiy nutq elementlari bilan ishlash qobiliyati oshiriladi. Ijodiy mashqlar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini mustaqil, obrazli va mantiqan bog'langan tarzda ifoda etishni o'rganadilar.

Quyidagi mashq turlarini misol sifatida keltirish mumkin:

1. **“Rasm asosida hikoya tuz”** – o'quvchi tasvir asosida voqea tuzadi va ifodali so'zlardan foydalanadi.
2. **“Ertakni davom ettir”** – mavjud ertakning keyingi voqealarini o'ylab topadi, bu esa nutqiy ijodkorlikni rivojlantiradi.
3. **“Bir so'zdan matn tuz”** – berilgan so'z atrofida mazmunli va izchil matn yaratish mashqi.
4. **“Ifodali o'qish”** – hissiyot va urg'ularni to'g'ri qo'llash orqali og'zaki nutq ifodaliligini oshiradi.

Pedagog A. Mavlonova ta'kidlaganidek, “ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchi so'z boyligini faol qo'llash, nutqiy situatsiyani his qilish va badiiy ifoda vositalarini o'zlashtirishga o'rganadi”.

Nutq madaniyatini rivojlantirishda “nutq vaziyatlari” asosida tashkil etilgan interfaol o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday mashqlar o'quvchilarni tabiiy muloqot muhitiga olib kiradi va ularni real hayotdagi kommunikativ holatlarga tayyorlaydi.

Masalan:

1. **Dialog mashqlari** – “Do'konchi va xaridor”, “O'qituvchi va o'quvchi” kabi mavzularda suhbat qurish orqali nutqiy muomala ko'nikmasi shakllanadi.
2. **Hikoya qilish o'yini** – o'quvchilar tasodifiy so'zlar asosida qisqa hikoya tuzadilar, bunda nutqiy ijodkorlik rivojlanadi.
3. **Rolga kirish o'yinlari** – o'quvchilar ma'lum ijtimoiy vaziyatlarni sahnalashtirib, nutq madaniyati me'yorlarini amalda qo'llaydilar.

Pedagogik tadqiqotlarda (Jahonova, 2021) qayd etilishicha, “interfaol o'yinlar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi, ularda muloqot madaniyati, tinglash, fikr almashish va o'zini ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi”. Natijada bunday mashq va topshiriqlar tizimi o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, grammatik to'g'rilikni mustahkamlash, ifodalilikni rivojlantirish hamda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga kompleks tarzda xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Nutq madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar va topshiriqlar tizimi o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan mashqlar o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqini rivojlantirish, so'z boyligini kengaytirish, fikrni mantiqiy va ravon ifodalash ko'nikmalarini takomillashtirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida interfaol metodlar, ijodiy topshiriqlar va kommunikativ mashqlarning qo'llanilishi o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirishi, mustaqil fikrlashini rivojlantirishi hamda ularning badiiy-estetik tafakkurini shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar o'quvchilarning erkin fikrlash, muloqotga kirishish va nutqiy situatsiyani to'g'ri baholash kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari nutq madaniyatini rivojlantirish jarayonida mashq va topshiriqlarning izchillik, tizimlilik hamda yosh va individual xususiyatlarga moslik tamoyillari asosida tashkil etilishi yuqori samaradorlikni ta'minlashini ko'rsatdi. Bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilarning kommunikativ ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olish zarurligini tasdiqlaydi.

Natijada nutq madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar va topshiriqlar tizimining metodik modeli ishlab chiqildi hamda uning ta'lim jarayonidagi amaliy samaradorligi asoslab berildi. Mazkur metodik yondashuv o'quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirish, kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish va zamonaviy ta'lim talablariga mos ravishda shaxs kamolotini ta'minlashda muhim didaktik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. – 06/19/5712/3034.
2. Mavlonova K. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish: PhD diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – 22 b.
3. Jahonova N. "O'quvchilarda nutq madaniyatini rivojlantirish metodlari" // Ilmiy axborotnoma. – Toshkent, 2021. – № 3. – B. 45–49.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.